



SHIMOLIY FARG'ONA VODIYSI XITOIY MANBALARIDA

Maxsutaliyev Jahongir

Namangan davlat universiteti talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7807536>

ARTICLE INFO

Received: 27th March 2023

Accepted: 06th April 2023

Online: 07th April 2023

KEY WORDS

Protashahar, sivilizatsiya,
oqsoqollar kengashi,
parlament, sug'orma
dehqonchilik va
hunarmandchilik, Shiji, Xan shu,
24 tarix.

ABSTRACT

Ushbu maqolada qadimgi davrlardan beri ikki yonma-yon hududlarning o'zaro siyosiy-diplomatik munosabatlari, xususan, Shimoliy Farg'ona vodiysi haqida dastlabki ma'lumotlarning xitoy manbalarida aks etishi, mnbalarning Farg'ona haqidagi qimmatli ma'lumotlar to'g'risida so'z yuritilgan.

Farg'ona vodiysi o'ziga xos iqlim va tabiiy sharoitga ega bo'lgan hududlardan biri hisoblanadi. Vodiyning iqlimining boshqa hududlardan farq qilishining asosiy sabablaridan biri janubdan Turkiston-Oloy tog'lari, shimoldan Chotqol-Qurama hamda sharqdan Farg'ona tog'larining o'rab turishidir. Bunday tarzda tog'larning joylashuvi tabiiy muhofaza devorini tashkil etadi. Bu esa mo'tadil iqlim sharoitini yaratib bergan. Tog'likdagi qor va muzliklar daryo va soylarni doimiy ravishda suv bilan ta'minlab berishi vodiydagi yerlarni hosildor bo'lishini kafolatlagan. Shuning uchun ham Farg'ona vodiysida million yillar davomida qadimgi ajdodlarimiz yashab kelgan. Davrlar davomida insonlar yerlarni o'zlashtirib borgan. Dastlab kichik dehqon manzilgohlaridan boshlangan sivilizatsiya katta-katta shaharlar va davlatlarning debochasi bo'lgan. Neolit va bronza davrida sug'orma dehqonchilik va hunarmandchilikning rivoj topishi savdo-sotiq va ayirboshlash tizimining taraqqiyotini yuzaga keltirgan. Ilk temir davriga kelib, manzilgohlar asosida ilk shahar tipidagi qarorgohlar ("protashahar") shakllandi. Keyingi davrlarda bu qarorgohlar shaharlarga aylanib borgan. Bu haqida ko'proq xitoy manbalari guvohlik beradi.

Ko'hna va qadimiy tariximizni o'rganishda yunon, forsiy, rim, turkiy manbalar bilan bir qatorda xitoy manbalarning tutgan o'rni ham alohida diqqatga sazavordir. Bu manbalar miloddan oldingi yillarda yozila boshlagani ilan o'zida 5000 yillik tarixni mujassam etadi. Bu manbalarning boshqa manbalardan ustun tarafi esa yilma-yil yozilib orishi va voqealarning aniqligidir. Xitoy manbalarning yana bir muhim jihati qo'shni mamlakatlar bilan bo'lgan aloqalar to'g'risida boy ma'lumotlar berilishidir. Xususan, Farg'ona va Xitoy o'rtasidagi qadimdan eri davom etib kelayotgan diplomatik, savdo va iqtisodiy aloqlar to'g'risida ma'lumotlar uchraydi. Dastlabki Farg'onaga oid yozma manbalar miloddan avvalgi II asrga oid



bo'lib, o'sha davrda bu yerda mavjud bo'lgan Farg'ona davlati Dayyuan (Davan) deb nomlanadi.

"Miloddan avvalgi I – milodiy I asrlarga oid xitoy manbalarida Shiszi va Xanshuda Farg'ona davlatida 70 ta shahar bor, davlatni podsho ikki yordamchisi bilan boshqaradi, davlatning ichki va tashqi siyosatini belgilashda Oqsoqollar kengashi (Parlament) asosiy rol o'ynaydi"[1]. Shu kabi ma'lumotlar asnosida Farg'ona vodiysidagi ilk davlatchilik ko'rinishlarini bilib olish mumkin. Bu yerda joylashgan shaharlar bir-biri ilan iqtisodiy va savdo munosabatlari orqali birlashtirilgan. Farg'ona davlati doimiy ravishda xitoy bilan do'stona aloqlarni yo'lga qo'yishga harakat qilgan.

Yana bir boshqa manbalarda "Qadimgi Farg'ona davlatiga oid ma'lumotlar asosan mashhur "24 tarix"ning 1-2 jildi "Shiji" ("Tarixiy xotiralar") va "Xan shu" ("Xan sulolasining tarixi" yoki "Xannoma")da beriladi. Bu ikki asarning xitoy tilidagi boshqa tillarga to'la tarjimasi mavjud emas"[2]. Dastlab, R.V.Vyatkin "Tarixiy xotiralar"ning rus tilida 8 jildli iziohli tarjimasini tayyorlashni rejalagan bo'lsa-da, 5-6 jildini nashr ettirib, olamdan o'tadi. Natijada Markaziy Osiyoga tegishli qismi tarjima qilinmay qoladi. Shuning uchun N.Ya.Bichurinning "24 tarix"ning Markaziy Osiyoga tarixiga oid bo'laklarini rus tilidagi tarjimasi muhim manba hisoblanadi. Shu va shunga o'xshash rus tilidagi tarjimalardan olingan xitoy manbalarida kishi nomlari va har xil atamalar rus tili nuqtai nazaridan shartli ravishda qabul qilingan.

Xitoy manbalarida miloddan avvalgi II asrda Farg'ona vodiysida Dayyuan davlati, ya'ni Farg'ona davlati deb tilga olinadi. Xitoy manbalaridagi "Davan" atamasi rus va o'zbek adabiyotida "Farg'ona" deb erigan. Davan qadimda "Dayyuan" deb talaffuz etilgan. "Dayyuan" atamasi "Katta bo'stonlik" degan ma'noda bo'lib, Farg'ona vodiysiga nisatan ishlatilgan (A.Xo'jayev). "Ilgari Farg'ona sug'd yozuvlarida "Parg'ana" shaklida yozilgan bo'lib, fors tilida tog' oralig'idagi vodiy, atrofi berk soylik degan ma'noni anglatgan"[3].

Farg'ona davlatining bu tarzda atalishi va u haqida dastlabki ma'lumotlar qadimdan xitoy sayohatchilarning bu hududga muntazam tashrif buyurishi tufayli to'plab borilgan. Farg'ona haqidagi ilk ma'lumotlar mashhur xitoy diplomati Chjan Syanning miloddan avvalgi 128-127 yillarda xunlar asirligidan qutulgach, G'arbiy mamlakatlarga qilgan sayohatidan so'ng paydo bo'lgan. Xitoy imperatori U-Di davrida bu davlatlar bilan yaqindan aloqlar o'rnatish niyatida ir necha elchilar yuboradi. Elchilarning hisobotida asosida dastlab, "Shiszi", so'ng "Xanshu" kabi yilnomalar vujudga keladi.

"Xitoy manbalarida miloddan avvalgi II asrda Farg'ona vodiysida xonlik bo'lganligi tilga olinadi, U "Dayyuan guo" deb yozilgan"[4]. Ana shunday xitoy manbalari va yilnomalarida Farg'ona davlati, Farg'ona shahri va uning xalqi to'g'risida dastlabki aniq va boy ma'lumotlar mavjud. Xususan, miloddan avvalgi II – milodiy I asrlardagi Farg'onaning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida bebaho xabarlar berilgan. Xitoy yilnomalariga asoslanib, Farg'ona vodiysining iqtisodiy hayotini ham bilib olish mumkin. Xususan, Shiszi va Xanshudagi ma'lumotlarga qaraganda Farg'onada xo'jalikning asosini dehqonchilik tashkil qilib, unda ko'proq aholi sholi va bug'doy ekan. Mevalardan uzumchilik keng tarqalgan bo'lib, undan may (vino) tayyorlangan. Yana Farg'ona o'zining samoviy otlari bilan ham mashhur bo'lgan. Farg'onaning ko'plab hududlarida beda yetishtirilgan. Shuning uchun ham Farg'onaning o'sha davrdagi xo'jaligining asosini ot yetishtirish tashkil qilgan. Bu ma'lumotlarning aksariyati



Chjan Syan orqali Xiyoy imperatori huzuriga yetib borgan va xitoy yilnomalarida batafsil yoritilgan.

Chjan Syan ma'lumotlaridan tashqari, yana bir boshqa xitoy manbalarida o'rtaosiyoliklar, jumladan, farg'onaliklarning miloddan avvalgi II asrda juda mohir savdogar, molning narxi ustida bir-biriga gap bermasdan tortishadiganligi aytilgan[5].

Xulosa qilib aytganda, Farg'ona vodiysi tarixini o'rganishda xitoy yilnomalari va asarlari muhim manba hisoblanadi. Manbalar orqali o'sha davr Farg'ona vodiysining tarixiy-geografik hududi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, vodiylar aholisining xo'jalik turmush tarsi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar o'rganiladi.

References:

1. Anorboyev A. Farg'onaning qadimgi shaharlari va ularning Markaziy Osiyo tarixida tutgan o'rnini. – Toshkent, 2022. 16-b
2. Abduxoliq Abdurasul o'g'li Qadimgi Farg'ona tarixidan (Xitoy manbalarida Farg'ona haqida ilk ma'lumotlar). – Toshkent, 2002. 16-b
3. ЎзСЭ. Тошкент, 1979, Т.12, 27-бет
4. Бан Гу. Хан шу – Хан шу (Хан сулоласи тарихи). Шанхай, 1958. 2372 (1164) – бет
5. Си Мачян. Фарғона тазкираси. Тарихий хотиралар ("24 тарих" даги Ўрта Осиёга оид материаллар тўплами). Урумчи, 1989, 507-бет
6. Qosimov Y. Qadimgi Farg'ona sirlari. – Namangan, 1992.